UO‘K: 94(575.121)39(672.122)

BERUNIYNING ILMIY MEROSIDA INSON VA JAMIYAT MASALALARI

Karimbayeva Salomatxon, *kafedra dotsenti,*
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi,
E-mail: karimbayeva1122@gmail.com
Namangan davlat texnia universiteti,

Annotatsiya: *Mazkur maqolada insoniyat taraqqiyotida vorisiylik va merosiylik tamoyillarining o‘rni hamda ilm-fan va madaniyatning jamiyat rivojidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor buyuk mutafakkir Abu Rayhon Beruniyning jamiyat va inson haqidagi ijtimoiy-falsafiy qarashlariga qaratilgan. Allomaning borliq, jamiyatning kelib chiqishi, mehnat taqsimoti, ilm-fanning moddiy ehtiyojlar asosida shakllanishi, inson aqli va erkin tanlovining ijtimoiy taraqqiyotdagi roli haqidagi g‘oyalari yoritiladi. Shuningdek, Beruniyning deistik qarashlari, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik, geografik omilning inson hayotiga ta’siri haqidagi fikrlari tahlil etiladi.*

Аннотация: *В данной статье анализируется роль принципов преемственности и наследия в развитии человечества, а также значение науки и культуры в общественном прогрессе. Основное внимание уделяется социально-философским взглядам великого мыслителя Абу Райхон Беруний на общество и человека. Освещаются его идеи о бытии, происхождении общества, разделении труда, формировании науки на основе материальных потребностей, а также о роли разума и свободного выбора человека в социальном развитии. Кроме того, рассматриваются деистические взгляды Беруни, взаимосвязь природы и общества, а также влияние географического фактора на жизнь человека.*

Abstract: *This article analyzes the role of the principles of continuity and heritage in the development of humanity, as well as the importance of science and culture in social progress. Special attention is given to the socio-philosophical views of the great thinker Abu Rayhon Beruniy on society and the individual. The study highlights his ideas on existence, the origin of society, division of labor, the formation of science based on material needs, and the role of human reason and free choice in social development. It also examines Beruni’s deistic views, the interconnection between nature and society, and the influence of geographical factors on human life.*

Kalit so‘zlar: *Abu Rayhon Beruniy, jamiyat, inson, ilm-fan, vorisiylik, meros, ijtimoiy taraqqiyot, mehnat taqsimoti, deizm, madaniyat, aql-idrok, ma’naviy meros.*

Ключевые слова: *Абу Райхон Беруни, общество, человек, наука, преемственность, наследие, социальное развитие, разделение труда, деизм, культура, разум, духовное наследие.*

Keywords: *Abu Rayhon Beruniy, society, human being, science, continuity, heritage, social development, division of labor, deism, culture, reason, spiritual heritage.*

Kirish. Insoniyat taraqqiyoti uzluksiz vorisiylik va merosiylik tamoyillari asosida shakllanib kelgan murakkab tarixiy jarayondir. Har bir avlod o‘zidan oldingi avlod yaratgan ilmiy, madaniy va ma’naviy boyliklarga tayanib, ularni boyitadi va keyingi avlodlarga yetkazadi. Shu ma’noda tarixiy meros jamiyat rivojining uzviy tarkibiy qismi, taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi. Ayniqsa, ilm-fan va madaniyatning yuksalishi davlat va jamiyatning ma’naviy salohiyatini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir.

Usullar. O‘rta asrlar Sharq uyg‘onish davrida ilm-fan taraqqiyoti davlat homiyligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Ana shunday tarixiy sharoitda yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlardan biri – Abu Rayhon Beruniydir. Uning boy ilmiy-falsafiy merosi nafaqat tabiiy

fanlar, balki jamiyatshunoslik, falsafa, madaniyat va inson muammolarini chuqur tahlil etishi bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Beruniyning jamiyat va inson haqidagi qarashlari, uning ilm-fan, mehnat, aql-idrok hamda ijtimoiy taraqqiyot haqidagi g‘oyalari tahlil qilinadi. Allomaning fikrlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolgan bo‘lib, zamonaviy jamiyat taraqqiyoti va ma’naviy yuksalishida muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Taxlil va muhokamalar. Insoniyat tarixi ming yillar davomida tadrijiy rivojlanish jarayonidan o‘tib, bugungi kunda yuqori darajadagi ilmiy, madaniy va ijtimoiy taraqqiyotga erishdi. Ushbu rivojlanish hech qanday tasodifiy yoki birdaniga yuzaga kelgan hodisa emas; u asosan vorisiylik va merosiylik tamoyillari orqali amalga oshgan. Har bir avlod o‘zidan oldingi avlodlar yaratgan ilmiy, madaniy va ma’naviy boyliklarga tayangan holda ularga yangilarini qo‘shib, ularni keyingi avlodlarga yetkazadi. Shu yo‘l bilan insoniyat tajriba, bilim va qadriyatlarni uzluksiz ravishda rivojlantirib borgan.

Vorisiylik tamoyili faqat madaniy va ilmiy merosni emas, balki insoniyatning axloqiy, falsafiy va ijtimoiy qadriyatlarini ham o‘z ichiga oladi. Masalan, tarix davomida yetakchi mutafakkirlar, olimlar va ijodkorlar o‘z asarlarida jamiyatning muhim masalalarini yoritgan va shu orqali o‘z davrida bilim va tajribani kengaytirgan. Har bir yangi avlod esa bu bilimlar asosida yangi kashfiyotlar qilgan, mavjud bilimlarni takomillashtirgan va zamonaviy hayotning talablariga moslashtirgan.

Shuningdek, merosiylik tamoyili nafaqat ilm-fan va madaniyat sohalarida, balki ijtimoiy tartib va davlat boshqaruvida ham o‘z ifodasini topadi. Avlodlar o‘tmishdagi tajribalarni o‘rganib, ularni o‘z sharoitlariga moslab, yanada samarali tizimlar va institutlar yaratadi. Shu tariqa, insoniyat taraqqiyoti uzluksiz jarayon sifatida davom etadi va har bir avlod o‘zining hissasi bilan umumiy rivojga hissa qo‘shadi.

Natijada, tarixiy meros nafaqat o'tmish bilan bog‘liq, balki kelajakni qurishda ham strategik ahamiyatga ega. Avlodlar o‘z ajdodlarining bilim va tajribalaridan foydalanib, ularni boyitadi, yangi g‘oyalarni kiritadi va shu bilan insoniyatning umumiy taraqqiyotiga xizmat qiladi. Bu jarayon davomida bilim, madaniyat va ijtimoiy qadriyatlar uzluksiz ravishda shakllanib, jamiyatning barqaror rivojlanishining asosini yaratadi.

Jamiyat rivoji, davlat taraqqiyoti bir qator omillarga bog‘liq. Ular orasida ilm-fan va uning namoyondalariga davlat tomonidan e’tibor berilishi ham bor. Ayniqsa, o‘rta asrlarda monarxiya sharoitida davlat rahbarining madaniyatga e’tibori fan rivojida muhim omil hisoblanadi. Bunga tarixdan misollar juda ko‘p. Xususan, dunyodagi beshinchi sivilizatsiya hisoblanuvchi arab sivilizatsiyasining gullab-yashnashi davlatning ilm-fanga homiylik qilishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Vatanimiz tarixida salmoqli o‘rin tutgan Xorazmshohlarning bu boradagi ibratli faoliyati ham diqqatga sazovordir. Masalan, xorazmshoh Abulabbos Ma’mun ibn Ma’mun (1009-1017) davrida tashkil etilgan Ma’mun akademiyasida juda ko‘p olimlar faoliyat ko‘rsatgan. Ularga mashhur alloma Abu Rayhon Beruniy boshchilik qilgan. Rivoyatlarda shohning o‘zi Beruniyga ilm haqida ibratli so‘z aytgani ma’lum: “Ega bo‘linadigan narsalarning eng sharaflisi ilmdir. Barcha unga qarab boradi-yu, lekin u kelmaydi. Ilm har narsadan yuksak, hyech narsa undan yuqori bo‘lolmaydi” [1].

Uning asarlari tahlilidan chekingan holda allomaning jamiyat va inson haqidagi qarashlari borasida fikr yuritmoqchimiz.

Abu Rayhon Beruniy VIII – XIII asrlarda O‘rta va Yaqin Sharqdagi arab–musulmon olamida keng tarqalgan tabiiyyunlar oqimiga mansub bo‘lgan. Tabiiyyunlar – Demokriting empirik tabiatshunoslik falsafasi yo‘nalishining vakillari bo‘lib, tabiat va insoniyat hodisalarini kuzatish, tajriba va empirik bilimlarga asoslanib tushuntirishni maqsad qilgan. Shu tariqa, Beruniy o‘z davrida tabiiy fanlarni ilmiy asosda tushunishga intilgan va bu oqimning yetakchi namoyandalaridan biri sifatida e’tirof etilgan.

Bundan tashqari, Beruniy o‘z davri talabidan kelib chiqib “qo‘sh haqiqat” nazariyasini ilgari surgan. Ushbu nazariya tarafdorlarining fikricha, haqiqat bitta bo‘lsa-da, unga erishish yo‘li ikki tomonlama bo‘lishi mumkin: birinchi yo‘l – ilmiy bilish, ya’ni kuzatish, tajriba va tafakkur orqali haqiqatga erishish; ikkinchi yo‘l esa majoziy, diniy kitoblar va ramziy tushunchalar orqali haqiqatni anglashdir. Beruniy bu yondashuv orqali ilmiy va dini bilimlarni bir-biriga zid emas, balki uzviy bog‘liq deb hisoblagan.

Olim o‘zining ko‘plab qomusiy va ilmiy asarlarida insoniyat va jamiyat, tabiat va ijtimoiy hayot masalalarini chuqur tahlil qilgan. U har doim o‘z nuqtai nazarini bayon qilishga, shuningdek, jamiyatdagi mavjud qarashlar va ijtimoiy hodisalarni tanqidiy yondashuv orqali o‘rganishga harakat qilgan. Shu tariqa, Beruniy nafaqat tabiiy fanlar sohasida, balki ijtimoiy va falsafiy bilimlarni rivojlantirishda ham o‘z davrining yetakchi olimi bo‘lgan.

Uning bu yondashuvi bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan: ilm-fan va diniy tafakkur o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik, haqiqatni izlashda empirik va majoziy bilimlarni uyg‘unlashtirish prinsipi, jamiyatshunoslik va falsafa tarixida yangi yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiladi[2].

Taniqli olima F. Sulaymonova o‘z asarida Abu Rayhon Beruniyning borliq haqidagi qarashlarini shunday ifodalaydi: Beruniy yaratgan bir Yaratuvchi borligiga ishongan, lekin u ma’lum bir dinning vakili emas, balki umumbashariy prinsiplarga asoslangan bo‘lib, butun insoniyatni yaratgan va uni harakatga keltirgan deb hisoblagan. Shu nuqtai nazardan, hayot tabiat qonunlari bilan uyg‘un tarzda davom etadi va tabiiy hodisalar doimiy o‘zgarishda bo‘ladi. Tabiat qotib qolgan, statik tizim emas, balki doimo harakat va rivojlanish jarayonida, o‘zgaruvchi va dinamik hodisa sifatida qaraladi.

Bu fikrlar Beruniyning deizm tarafdori bo‘lganligini ko‘rsatadi. Deizm – bu Xudo dunyoni yaratib, uni ishga tushirgan, lekin undan keyin uning ishlariga bevosita aralashmaydi, degan diniy-falsafiy oqim bo‘lib, unda tabiatning o‘z qonunlari asosida rivojlanishi ta’kidlanadi. Shu tariqa, Beruniy yaratuvchining mavjudligini tan oladi, lekin insoniyat va tabiat hodisalarini tushunishda bilim va tajribaga alohida e’tibor beradi.

Shu bilan birga, keyinchalik Beruniy deizmning chegaralarini sezadi. U deizmning qobig‘i, ya’ni Xudoning faqat yaratganidan keyingi ishlariga aralashmaslik g‘oyasi, dunyoning abadiy mavjudligini va uning ichki qonuniyatlarini tushuntirish uchun yetarli emasligini anglaydi. Shu sababli, olim moddiy dunyoning barqaror va abadiy mavjudligini tan olish zarurligini his qiladi va bu boradagi isbotlarni Qur’ondan ham topadi. Qur’oniy qarashlar Beruniyga tabiatning va insoniyatning uzluksiz va tartibli rivojlanishi, shuningdek, Yaratuvchining inson hayoti va tabiatdagi tartib bilan bog‘liqligi haqidagi fikrlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Natijada, Beruniy falsafiy tafakkurida tabiat, insoniyat va Yaratuvchi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik asosiy o‘rin tutadi. U deizmning ilmiy va falsafiy prinsiplarini o‘zlashtirib, ularga diniy manbalar bilan boyitilgan yangi yondashuvni kiritadi. Bu yondashuv uning ilmiy va falsafiy merosida o‘ziga xos konsepsiyani shakllantiradi: tabiat qonunlari bilan boshqariladigan dunyo, inson aqli va tajribasi orqali tushuniladigan va Yaratuvchining mavjudligi bilan uyg‘unlashgan borliq [3].

Inson va jamiyat muammosi barcha davrlarda faylasuflar diqqat markazida bo‘lgan. Bu borada Abu Rayhon Beruniy ham qimmatli fikrlarni qoldirgan. Eng avvalo, alloma “sabablarning sababi”-inson va insoniyat jamiyatining yuzaga kelishi masalasini qo‘ygan. Kishilik jamiyatining paydo bo‘lishi haqida aqlga asoslanib fikr yuritgan Beruniy “Qadimgi tarixlarning eng avvalgisi va eng mashhuri bashariyatning boshlanishidir”, -deb yozgan. Jamiyatning kelib chiqishida kishilarning moddiy ehtiyojlarini e’tirof etgan olim ehtiyojlarning turli-tuman va son-sanoqsizligi, faqat ularni bir qancha kishilar birgalikda ta’minlay olishlari mumkinligini qayd etgan [4].

F.Sulaymonova Beruniyning jamiyatning paydo bo‘lishi haqidagi fikrlarini davom ettirib shunday yozadi: “Insonlar boshqa jonivorlardan ongi bilan ajralib turadi, ular jamoa bo‘lib yashashlarining ikki sababi bor-turli xavf-xatardan birgalikda saqlanish va jamiyatga foydali

bo‘lgan mehnatni birdamlik bilan bajarish. Insonlar hayot taqozosidan kelib chiqib jamiyat bo‘lib yashaganlar. Mehnat taqsimoti o‘z navbatida sarf etilgan mehnatni qadrlash lozimligini tug‘diradi, bu esa pulni keltirib chiqardi.. Ilm-fan insoniyatning moddiy zarurati natijasida kelib chiqadi” [5]. Allomaning bu fikrlari juda qimmatlidir.

Beruniyning ilmiy merosida inson va uning tabiati haqidagi qarashlar ham muhim ahamiyatga ega. Odamlarning boshqa jonzotlardan farqi aql-idrokida, deb hisoblagan olimning fikricha, aql, mehnat, erkin tanlash insoning hayotini va ijtimoiy holatini belgilaydi. Beruniy inson boshqa odamlarning baxt-saodati haqida doimo o‘ylashi kerak, deydi va shunday yozadi: “Muayyan vazifalarni bajarish zarurati inson faoliyatining bir umrga yashash qoidasidir” [6]. Insonning jismoniy tuzilishi va butun hayotini aniqlashda geografik omilning roli haqida esa shunday fikrlari bor:“... (odam) tuzilishlarining rang, surat, tabiat va axloqda turlicha bo‘lishi faqatgina nasablarning turlichaligida emas, balki tuproq, suv, havo va yer (odamlar yashaydigan joy)larning turlichaligidan hamdir”. Alloma kishilarni nasabga qarab emas, mehnati va hunariga qarab baholash lozimligini e’tirof etadi.

Ulug‘ bobokalonimiz qoldirgan merosda bizning kunimizgacha o‘z dolzarbligini yo‘qotmay kelayotgan fikrlardan biri bu jamiyat taraqqiyotida ilm-fan va madaniyatning rolini keskin oshirish edi. U mamlakatlararo madaniy-ilmiy, savdo-sotiq aloqalarini kuchaytirish tarafdori bo‘lgan [7]. Alloma ilm-fan sahovatli xizmatni o‘tashi mumkin, deb hisoblagan va buni shunday ifodalaydi.: “Mening butun fikru yodim, qalbim-bilimlarni targ‘ib qilishga qaratilgan, chunki men bilim orttirish lazzatidan bahramand bo‘ldim. Buni men o‘zim uchun katta baxt deb hisoblayman” [8].

Tarixiy meros har doim kelajak uchun yo‘l ochuvchi muhim manba bo‘lgan. Buyuk ajdodlarimizning g‘oyalari va ilmiy ishlari nafaqat o‘z davrida, balki kelajak avlodlar uchun ham yo‘l-yo‘riq vazifasini bajaradi. Shu jihatdan, Abu Rayhon Beruniy merosi insoniyat ilm-fani va madaniyati tarixida beqiyos ahamiyatga ega. Uning ilmiy ishlari bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmay, zamonaviy ilm-fan rivoji va davlatning ilmiy homiylik siyosatida o‘z ifodasini topmoqda[9].

Natijalar. Beruniyning ilmiy merosi juda boy va har jihatdan o‘rganishga arziydi. U nafaqat tabiiy fanlar, astronomiya, matematika va geografiya sohalarida o‘zgarishlar kiritgan, balki inson va jamiyat, ijtimoiy hayot va ma’naviyat masalalarini ham chuqur tahlil qilgan. Uning asarlarida insonning tabiati, aql-idroki, mehnat va erkin tanlovi jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni aniq tasvirlangan. Shu sababli, Beruniyning ilmiy merosi faqat tabiiy fanlar bilan chegaralanmay, jamiyatshunoslik va ijtimoiy falsafa tarixida ham o‘ziga xos o‘ringa ega.

Taniqli tarixshunos va olim J. Sarton Beruniyni o‘z davridagi eng dono mutafakkir sifatida ta’riflagan. U Beruniyning ilmiy merosini yuqori baholab, uning asarlaridagi bilimga bo‘lgan cheksiz mehr va izlanish ruhini ta’kidlagan. Aynan shu ruh insoniyatning ilm-fan va madaniyat rivojida davomiylikni ta’minlaydi. Beruniyning quyidagi g‘oyasi esa bugungi kunda ham ilmiy faoliyat va jamiyat taraqqiyotiga ilhom baxsh etadi: “Insonning eng oliy baxti bilishda, chunki u aqlga ega. Baxt ana shu nuqtai nazardan tushunilsagina jamiyatga tinchlik va farovonlik keltiradi.” Bu so‘zlar Beruniyning ilmiy merosining nafaqat texnik yoki amaliy, balki ma’naviy va ijtimoiy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi[10].

Xulosa. Shu jihatdan qaraganda, Beruniyning ilmiy va falsafiy merosi bugungi kunda ham yosh tadqiqotchilar, olimlar va jamiyat arboblari uchun asosiy yo‘l-yo‘riq sifatida xizmat qilmoqda. Uning asarlaridagi bilimga intilish, insoniy qadriyatlarni hurmat qilish va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shish g‘oyalari har bir avlod uchun ibrat bo‘lib, kelajakni yanada barqaror va ma’naviy boy qilishga xizmat qiladi. Shu sababli, Beruniyning ilmiy merosini o‘rganish, uni targ‘ib qilish va kelajak avlodga yetkazish har birimizning burchimiz va sharafimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Xamidjon Homidiy. Ko‘hna Sharq darg‘alari. -T.: Sharq, 1999. B.34.

2. Rahimov I. Falsafa. –T.: Universitet, 1998. B.35.
3. Sulaymonova F. Sharq va G‘arb. –T.: O‘zbekiston, 1997. B.240.
4. O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. –T.: O‘zbekiston, 1995. B.73.
5. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. T.1. –T.: Fan, 1968. B.50.
6. Abu-r-Reyxan Muxammad ibn Axmad al-Beruni. Sobraniye svedeniy dlya poznaniya dragosennostey. Mineralogiya. –M.: 1963. S.11.
7. Abu Rayxon Muxammad ibn Axmad al-Beruni. T.3. Geodeziya. –T.: Fan, 1966. S.83.
8. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. T.1. –T.: Fan, 1968. B.236.
9. Tulenov J., G‘ofurov Z. Falsafa. –T.: O‘qituvchi, 1991. B.25.
10. O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. –T.: O‘zbekiston, 1995. B.81.